

## OQ AMUR BALIQ TURINING TUZILISHI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

**Andijon davlat Pedagogika instituti**

**Tabiiy fanlar fakulteti biologiya yo‘nalishi talabalari**

**Mamasaitova Odinoxon Akbarjon qizi**

**Shaxobiddinova Surayyo Muxiddin qizi**

Annotatsiya. Ushbu maqolada baliqlarning umumiy tuzilishi, tana tuzilishi, ularning kelib chiqishi, mahsuldorligi, me'yor, ko'payishi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Keyingi vaqtlarda foydali baliqlar juda kamayib ketganligi sababli baliqlarni tabiiy sharoitda saqlash va ularning sonini ko'paytirish maqsadida davlatimiz tomonidan bir qator chora tadbirlar amalga oshirilmogda. Baliqlarning ko'payish joylarini himoya qilish, suv havzalarini ortiqcha chiqindi va suv o'simliklaridan tozalab turish daryo, ko'l va hovuzlarni sanoat korxonalaridan chiqqan zaharli oqova suvlardan va neft quyilishidan qo'riqlash, qimmatbaho baliqlarni iqlimlashtirish turlari, bundan tashqari maqolada oq amur baliqlarini oziqlantirish, saqlash va ko'paytirish sharoitlari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** oq amur ,zooplankton, o'g'itlar , azotli o'g'itlar, fosforli o'g'itlar

**Ключевые слова:** белый амур, зоопланктон, удобрения, азотные удобрения, фосфорные удобрения

**Keywords :** grass carp, zooplankton , fertilizers, nitrogen fertilizers, phosphate fertilizers

**Kirish** Baliqlar (Pisces) – umurtqalilar kenja tipining katta sinfi juda keng tarqalgan. Tuzilishi, hayot kechirishi va ekologik xususiyati suv muhitiga juda yaxshi moslangan .Baliqlarning qadimgi ajdodlar lansetnikka o'xshash sodda tuzilgan xordalilar bo'lgan. Tarixiy rivojlanish davomida dastlabki xordalilardan juft suzgich qanotli hayvonlar paydo bo'lgan. Ular yirtqich hayot kechirishgan. O'lja axtarib faol hayot kechirishi natijasida ularning nerv sistemasi va sezgi organlari rivojlana borish yo'li bilan baliqlar kelib chiqqan. Baliqlar suvda yashovchi xordali hayvonlar. Baliq insoniyat tomonidan qadim zamonlardan beri iste'mol qilib kelinadi. Respublika sog'liqni saqlash vazirligi tavsiyasiga ko'ra har bir inson

organizmi sogʻlom rivojlanishi uchun kuniga 33 g yoki yil davomida 12 kg baliq mahsuloti isteʼmol qilishi lozim. Hozirgi kunda baliqchilik xoʻjaliklarida yetishtirilayotgan, suv havzalaridan ovlanayotgan baliqlar aholi toʻliq ehtiyojini qondira olmaydi. Oziq -ovqat xavsizligini taʼminlashda baliq va akvakulturaning oʻrni katta. Baliq toʻla qimmatli va oqsilga boy ozuqa hisoblanadi. Dunyo aholisi soni ortib bormoqda. Tabiiyki bu resurslar cheklangan sayyoramizda oziq – ovqat muommosini keltirib chiqaradi. Maʼlumotlarga koʻra, dunyoda qariyb 690 mln kishi toʻyib ovqatlanmaydi. Bu maʼlumotlardan koʻrinib turibdiki, dunyo aholisi 10 % toʻyib ovqatlanmasligini koʻrsatadi. Bu global muommolarning eng yaxshi yechimlaridan biri kam sarf, serhosil boʻlgan baliqchilik xoʻjaliklarini tashkil etishdir. Oʻsimlikxoʻr baliqlar populyatsiyasidan tashkil topgan xoʻjalik eng samarali usul hisoblanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi** Oq amur vatani Amur va boshqa Uzoq Sharq daryolari hisoblanadi. Yirik, tez oʻsadigan baliq, tanasi torpedasimon, tangachalari yirik-yirik. Tabiiy hovuzlarda uzunligi 1m ga yetadi, ogʻirligi 30 kg ga yetadi va undan koʻproq ham oʻsadi. Jinsiy yetilishi Rossiyaning janubiy viloyatlarida 3-4 yoshida Krasnodor oʻlkasida 4-5 yoshida, Moskvada esa 7-8 yoshida roʻy beradi. Serpushtligi 2 mln. Koʻpincha 100 000 -800 000 gacha uvildiriq beradi, baliqlar uvildiriqni aprel, avgust oylarida daryo oʻzaniga tashlaydi. Oʻzbekiston sharoitida urgʻochilari 4-5 yoshida uzunligi 55-65 sm ( dumini hisobga olmasdan ) va ogʻirligi 3,5 – 4 kg boʻladi, erkaklari 1 yil ertaroq yetiladi. Odatda, nasl beruvchilardan 5 yoshdan oshganda foydalaniladi. Hindistonda oq amurning urugʻini yetishtirish uchun quruq yoki nam tozalash usullari qoʻllaniladi. Gipofiz ekstrakti yoki ovaprim kabi sintetik vositalar ineksiya uchun ishlatiladi.

**Tadqiqot natijasi** Oq amurni oziqlantirish uchun turli xil oʻsimliklar - beda, joʻxori poyasi va boshqalardan foydalaniladi. Ratsional oziqlantirish uchun oʻsimliklarni kesib, maydalab, yanchish va shu hovuzga solish kerak. Oq amur uchun oʻsimliklar mayda boʻlakchalarga kesilgan, maydalangan boʻlishi yaxshi samara beradi. Oq amur uchun oziqa sifatida oʻsimliklarning yashil qismlari, barglari, mevalari, dukkakli oʻtloqzor oʻsimliklarining donlari, ( urugʻlari), changalzor, daraxtlar, jumladan, meva hamda sabzavotlardan, suvoʻtlari, suvli giatsint, ryaska, pistiya va boshqalardan foydalanish ham iqtisodiy, ham ozuqaviy jihatdan yuqori foyda beradi.



**Muhokama** Postembrional rivojlanishning birinchi bosqichidan boshlanib 9 mm uzunlikda bo‘lgan chavoqlar suv havzasidagi barcha zooplanktonlarni iste‘mol qiladilar. O‘simlikxo‘r baliqlar chavoqlarini o‘stirish uchun 1,0gacha bo‘lgan chuqurligi 0,5 – 0,7 metr bo‘lgan xovuzlar tanlangani ma‘qul . Bir necha haftadan so‘ng ozuqasi tarkibida o‘simlik organizmlari paydo bo‘ladi. Ulg‘aygan sari oziqlanishida organizmlar soni kamayib o‘simlik organizmlari ko‘payadi. Bir yozli baliqchalar tashkil etadi yuqori o‘simliklar bilan oziqlanadi. Hovuzlarda polikultura sharoitidagi katta zichlikda o‘stirishda yoki o‘simlik ozuqasining tanqisligida hovuzga karp uchun solinadigan omuxta yemi ham iste‘mol qilishi mumkin. Oq amur tez o‘sadi. O‘zbekistonda ikki yillik davriylik qabul qilingan sharoitda tovar baliqlar vazni 500 - 1500 garmni tashkil qiladi . 2 yoshga yetganda kunlik ozuqa talab qilinishi me‘yor ratsioni tirik vaznining 40 % ini tashkil etadi. Oq amur yaxshi meliorator hisoblanadi . Ular zovurdagi o‘tlarni iste‘mol qiladi. O‘simliklarning qoldiqlari, ifloslanishdan saqlashga yordam beradi. Oq amur baliq yuqori o‘simliklar bilan oziqlanadi , hovuzlarda uni tezda iste‘mol qiladi. Yaxshi natijalarga erishish uchun hovuzlarga o‘rilgan o‘tlarni solish talab etiladi. Oq amurning salohiyatidan baliqchilikda tegishli foydalanilmayapti. Asosiy sabab oziqlantirish texnologiyasining mukammal ishlab chiqarilmaganidir.

**Xulosa** Oq amur balig‘i uchun asosiy ozuqa yuksak o‘simliklar ekanligini hisobga olsak , kutilgan natijani olish uchun hovuzlarni o‘g‘itlashni o‘zi kifoya . Buning uchun organik va mineral o‘g‘itlar qo‘llaniladi. O‘g‘it solishdan maqsad fitoplankton va zooplanktonni rivojlantirishdir. Mineral o‘g‘itlar tarkibida fosfor, azot , kalsiy va kaliy saqlagan mineral o‘g‘itlarga ajratiladi. Fosfor o‘g‘itlari oddiy superfosfat tarkibida 7 -14 % fosfor mavjud. Qo‘sh superfosfatda 19% fosfor. Azot o‘g‘itlari - ammiak selitrasida 30 - 34 % azot mavjud. Ammoniy sulfati - 20 % azot bor. O‘g‘itning turiga qarab , ularni baliq hovuzlariga kiritishda me‘yorlar mavjud. Masalan, ammiakli selitra bir gektar hovuzga 55 – 60 kg solinsa, oddiy superfosfat 70 kg solinadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Xolmirzayev D. “Baliqchilik asoslari” Toshkent 2016
- 2.Xusenov S. Baliqchilik Toshkent 2013
3. S .Dadayev – O. Mavlonov “Zoologiya” Toshkent2008.
4. Atabayev A, Malikov T,Shabbozov X “ Science and Innovation “ 2022.

